

Mantiqut-tayr (I- qism)

Farididdin Attor

FARIDUDDIN ATTOR MA'NAVIY MEROSI

«
Qaysi qush, Qofi fano anqosi ul
Jumlai qushlar tili donosi ul.
Kashfi asrori haqoyiqda farid,
Nutqidin ahli haqiqat mustafid...
Alisher Navoiy
»

Sho'rolar davrida muqaddas kitobimiz Qur'oni karimni o'zbekchaga tarjima qilib, nashr etishni, Rasululloh SAV hayotnomalarini, imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, imom al-Motirudiy meroslarini o'rganishga yo'l yo'q edi. Kim diniy qadriyatlarimiz jamlangan kitoblarni, hadisi shariflarni nashr etish tugul, o'qisa ham, jazoga tortilar edi.

Ming bor shukrki, Istiqlolga erishdik. Qur'oni karim, hadislar ma'naviy hayotimizda yana yuksak qadrini topdi, diniy-falsafiy xazinalarimizni o'rganishga keng yo'l ochildi. Abu Nasr Forobiyning «Madinat ul-fozila», imom al-Buxoriyning «Jomi' as-sahih», «Adab al-Mufrad», imom G'azzoliyning «Kimiyo saodat» (muktasari), Aziziddin Nasafiyning «Zubdat ul-haqoyiq», Fariduddin Attorning «Ilohiynoma», Jaloliddin Rumiyning «Fihi mo fih» («Ichindagi ichindadir»), «Masnaviyi ma'naviy», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvati sultoniy», Abul-Lays Samarqandiyning «Bo'ston ul-orifiy», «Tanbeh ul-g'ofiliy», So'fiy Olloyorning «Sabot ul-ujiziyn», at-Termiziyning «Sunani Termiziy», «Shamoyili Muhammadiya», Alixon To'ra Sog'uniyning «Tarixi Muhammadiy» kabi durdona asarlari Istiqlol yillarida xalqimizning ma'naviy mulkiga aylandi.

Jahondagi buyuk so'fiy faylasuflardan biri Fariduddin Attorni daho o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» asarida bunday ta'riflaydi: «Qushlar tilini tushunish olamda faqat bir zotga, Sulaymon payg'ambarga nasib etgan edi. So'ng uning vaziri Osaf tushundi-yu, ammo hech kimga tushuntirmadi. Shundan so'ng charx aylanib, ming yillar o'tib, olamga bir zot keldi. U qush tili (falsafiy ramzlar)ni tushuntirishda Sulaymon nabiyan ham, vaziri Osafdan ham o'zib ketdi. Qushlar tilni go'yo undan o'rgandilar. Haq taolo muning nutqini go'yo (bulbul) ayladi. Nukta deb anjom ila og'ozdin, oncha gavhar sochti ganji rozdin».

Navoiy aytadiki, bu ilohiy sirlarni forsiy tilni bilganlar tushundilar. Attor asaridagi ganjlarning sirlarini turkiy tilli xalqlar ham tushunsin deb, kamina bu xazinalarni turkiy